

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.17/30.07.2022.T.06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

JUMAYEV JABBOR HAMROQULOVICH

**AZOT TUTGAN HALQALI BIRIKMALARNING TO‘YINMAGAN
HOSILALARI SINTEZI, XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI**

02.00.14-Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy -2023

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Jumayev Jabbor Hamroqulovich

Azot tutgan halqali birikmalarning to‘yinmagan hosilalari sintezi, xossalari va
texnologiyasi.....3

Жумаев Жаббор Хамрокулович

Синтез, свойства и технология непредельных производных азотсодержащих
циклических соединений.....21

Jumaev Jabbor Hamroqulovich

Synthesis, properties and technology of unsaturated derivatives of nitrogen
containing ring compounds.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works42

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.17/30.07.2022.T.06.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

JUMAYEV JABBOR HAMROQULOVICH

**AZOT TUTGAN HALQALI BIRIKMALARNING TO‘YINMAGAN
HOSILALARI SINTEZI, XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI**

02.00.14- Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy -2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3245 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndki.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Vohid Nizomovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar:

Kadirov Xasan Irgashevich
texnika fanlari doktori, professor

Beknazarov Hasan Soyibnazarovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi PhD.17/30.07.2022.T.06.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 24 06 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining majlislar zali. Tel.: 79 (436) 223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66; (e-mail: info@ndki.uz).

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (136) raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. ko‘chasi, Tel.: 0 (436) 223-23-32; faks: 0 (436) 223-49-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 5 06 kuni tarqatildi.

(2023 yil «5» 06 dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).



B.F.Muxiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

S.Sh. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

H.M. Vapoyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda organik moddalar, ayniqsa, ikkilamchi to‘yingan aminlarning diyenli, atsetilenli hosilalari neft-gaz kimyosi, qishloq xo‘jaligining turli sohalarida, farmatsevtika, kimyo sanoati, lok-bo‘yoq va to‘qimachilik sohalarida keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Binobarin, shunday moddalardan insektitsidlar, sorbentlar, maxsus xususiyatli polimerlar, pigmentlar, dorivor preparatlar, fotosezgir materiallar, biologik faol moddalar, rangli plyonkalar, plastiklar, termostabillovchi tolalar va kompozitsion materiallar olish imkonini beradi. Shu sababli azot tutgan birikmalarni vinillash jarayoniga ta’sir etuvchi turli tabiatli katalizatorlar, organik erituvchilar va ularning aralashmalari, shuningdek yuqori asosli muhitlar ishtirokida diyenli, atsetilenli aminlar hosilalarini hamda muhim kimyoviy komponentlar sintez qilish imkoniyatlarini topish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda azot saqlagan organik moddalarni yuqori bosim va haroratda vinilatsetilen birikmalari bilan birikish reaksiyalari natijasida yuqori unum diyenli aminlar, atsetilenli aminlar sintez qilish va xossalarini o‘rganish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, hozirgi kunda azot, fosfor va fosfor organik birikmalarini o‘z ichiga olgan birikmalar, shuningdek faol vodorod atomi tutgan moddalarning vinilatsetilen birikmalarini atmosfera bosimida yuqori asosli sistemalarda olish usullarini yaratish, sintez qilingan mahsulotlarni metallar korroziya ingibitorlari sifatida turli muhitlarda qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda mahalliy xomashyolar atsetilen asosida azot tutgan halqali birikmalarini sintez qilish, ular asosida xalq xo‘jaligi uchun ahamiyatli bo‘lgan metallar korroziyasi uchun qo‘llaniladigan preparat mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha ilg‘or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasida¹ «Tubdan yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, shu asosda tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardosh mahalliy tovarlarni ta’minlash» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mahalliy xomashyo bo‘lgan atsetilen asosida organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarish usullarini yaratishga, olingan mahsulotlarni tuzilishini, fizik-kimyoviy, texnologik va ekspluatatsion xossalarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF- 60-sonli «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli «O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risi” dagi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. –T., 2017. – 103 b.

sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-sonli «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning yetakchi olimlari uchbog' va qo'shbog' tutgan birikmalar va ularning hosilalari vinilbirikmalarni atsetilen asosida sintez qilish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Chet el mamlakatlarida bu yo'nalishda O.N.Temkin, B.A.Trofimov, L.B.Fisher, R.M.Flid, I.L.Kotlyarevskiy, A.V.Shelkunov, B.Gusev, A.A.Petrov, Paru Ram Pao, L.Panivnika, Yoko Yamamoto, Biao Jiang kabi atoqli olimlarni ilmiy tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

Respublikamizda atsetilen kimyosi sohasida K.M.Axmerov, A.G.Maxsumov, A.Ikromov, B.F.Muxiddinov, D.Yusupov, T.S.Sirliboyev, S.E.Nurmonov, A.T.Djalilov va boshqalar tomonidan turli sintezlar, atsetilen birikmalarning ingibitorlik xossalari, atsetilen asosida geterotsiklik birikmalar sintezi va faol vodorodli organik birikmalarni vinillash sohasida ilmiy izlanishlar olib borilgan va davom ettirilmoqda. Respublikamizda metallar korroziyasi muammolarini hal qilishda, ingibitorlik xossalarni namoyon qiluvchi kimyoviy birikmalarni sintez qilishda va ingibirlovchi sistemalarni yaratishda T.D.Siganov, R.S.Tillayev, A.Ikramov, A.T.Djalilov, F.K.Kurbanov, Z.B.Tadjixodjayev, D.Yusupov, X.I.Akbarov, H.Qodirov, H.S.Beknazarov kabi olimlar o'zlarining tadqiqotlari bilan hissa qo'shganlar.

Ilmiy-texnik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yenin uglevodorodlarini olish usullari, azot tutgan halqali birikmalarni diyenli aminlar, atsetilenli aminlarning hosilalari sintezi va ularni olish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi vinillash jarayoniga yangi katalizator avlodlarini qo'llash, azot saqlagan geterotsiklik birikmalarni vinilatsetilen bilan vinillash jarayoni asosida neft sanoati, qishloq xo'jaligi va tibbiyotda foydalanish mumkin bo'lgan vinilbirikmalarni sintez qilish hamda ulardan korroziya ingibitorlarini olish, shuningdek, ushbu jarayonlardagi katalitik sistemalarining rolini tadqiq qilish kabi muammolar yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №37-22-son "Antibakterial kompozitsiya uchun tarkib ishlab chiqish va texnologiyasini yaratish" mavzusidagi fundamental-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi azot tutgan halqali birikmalarni yuqori asosli sistemalarda

vinilatsetilen ishtirokida qo'shbog' va uchbog' saqlagan aminlar hamda ularning hosilalarini olish texnologiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

piperidin, morfolinni vinilatsetilen ishtirokida atmosfera bosimida birikish reaksiyasi natijasida mos ravishda qo'shbog' va uchbog' saqlagan aminlarning olish jarayoni kinetikasini o'rganish;

ikkilamchi halqali aminlardan qo'shbog' va uchbog' saqlagan hosilalarni olish jarayoni uchun katalitik sistemalar yaratish va ta'sirini tadqiq qilish;

tanlangan ikkilamchi azotli geterotsiklik birikmalar va ular asosida olingan qo'shbog' va uchbog' saqlagan aminlar hosilalarni kvant-kimyoviy o'rganish;

sintez qilingan moddalarni fizik-kimyoviy xossalarini va ingibirlash xususiyatini o'rganish;

Ingibitorlarning olinish texnologiyasini yaratish va ishlab chiqarish jarayonida qo'llanish imkoniyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida morfolin, piperidin, atsetilen, suv, ishqor, DMSO, simob sulfat, sanoat aylanma suvi olingan.

Tadqiqotning predmeti azot saqlagan geterotsiklik birikmalarni geterogen-katalitik allenlash, sanoat aylanma suvlaridagi ingibirlash xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda geterogen-katalitik allenlash, YaMR ^1H - spektroskopiya, IQ-spektroskopiya, raman-spektroskopiya, xromato-mass spektroskopiya, elektron-skannerlovchi mikroskopiya, gravimetrik, optik, kvant-kimyoviy (PM-3, MNDO-3) yarim empirik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

morfolin, piperidin vinilatsetilen bilan katalitik birikish jarayoni atmosfera bosimida tabiati turlicha bo'lgan erituvchilar va katalizatorlar ishtirokida sistemali tadqiq qilingan hamda aminlarga vinilatsetilen birikish jarayoni kinetikasi asoslangan;

KOH-DMSO yuqori asosli sistemada tanlangan aminlarni vinilatsetilenga biriktirishda, asosan N-morfolinbutadiyen-2,3, va N-piperidinbutadiyen-2,3 hosil bo'lishi aniqlangan va texnologik jarayonni olib borishning maqbul sharoiti topilgan;

qo'shbog' va uchbog' saqlagan aminlarning hosilalari ishlab chiqarish jarayonida ingibitor sifatida qo'llanilishi yuqori samarador ekanligi isbotlangan;

uchbog' saqlagan aminlardan tegishli karbonil tutgan ingibitorlar sintez qilingan va texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

piperidin, morfolinni vinilatsetilen bilan atmosfera bosimida birikish natijasida ularning diyenaminli hosilalari sintez qilingan;

reaksiyaning davomiyligi va harorati, organik erituvchilar va katalizatorlarning tabiati va konsentratsiyasining asosiy mahsulotlar unumiga ta'siri aniqlangan;

N-morfolinbutadiyen-2,3, va N-piperidinbutadiyen-2,3 asosida N-morfolinbutanon-2 hamda N-piperidinbutanon-2 sintez qilingan hamda ishlab

chiqarishning texnologik parametrlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarda olib borilgan zamonaviy fizik-kimyoviy (YaMR ^1H , IQ, raman, xromato-mass spektroskopiya, elektron-skannerlovchi mikroskopiya, gravimetrik, kvant-kimyoviy va boshqa vositalar) usullari, spektral usullardan olingan natijalar Hyper Chem va Gaussian09 zamonaviy kompyuter dasturlarida tekshirilishi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati morfolin, piperidinning vinilatsetilen bilan katalitik birikish jarayoniga reaksiyaning davomiyligi, harorati, organik erituvchilar tabiati, katalizatorlar tabiati va konsentratsiyasining asosiy mahsulotlar unumiga bog'liqligi aniqlanganligi, sintez qilingan moddalarning samarali ingibitor sifatida qo'llanilishi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati atmosfera bosimi sharoitida morfolin va piperidin asosida metallar korroziyasi sifatida qo'llaniladigan ingibitorlarni sintez qilish, texnologik jarayonning maqbul sharoitlarini aniqlash, ingibitorlarning optimal konsentratsiyasini hamda ularni qo'llash imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Azot tutgan halqali birikmalarning to'yinmagan hosilalari sintezi, xossalari va texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

sintez qilingan N-piperidinbutanon-2, N-morfolinbutanon-2 ingibitorlari "Sho'rtan gazkimyo majmuasi" MCHJda amaliyotga joriy etilgan ("Sho'rtan gazkimyo majmuasi" MCHJ ning 2022-yil 26-dekabrdagi 50-13/1348-son ma'lumotnomasi). Natijada, sintez qilingan N-piperidinbutanon-2, N-morfolinbutanon-2 larni ingibitorlar sifatida sanoat aylanma suvlarida qo'llash metall konstruksiyalarini himoya qilish imkonini bergan;

tarkibiga uchlamchi amin hamda donor atomlari bo'lgan ingibitorlar "Sho'rtan gazkimyo majmuasi" MCHJda amaliyotga joriy etilgan ("Sho'rtan gazkimyo majmuasi" MCHJ ning 2022-yil 26-dekabrdagi 50-13/1348-son ma'lumotnomasi); Natijada, N-piperidinbutanon-2, N-morfolinbutanon-2 ingibitorlaridan foydalanish 68900970 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “Geterotsiklik birikmalar kimyosida tadqiqotlarning rivojlanish tendensiyasi” deb nomlangan birinchi bobida to‘yingan halqali ikkilamchi aminlar kimyosining rivojlanish tendensiyasi, morfolin asosida, samarali korroziya ingibitorlarini yaratish sohasidagi tadqiqotlarning rivojlanish istiqbollari va zamonaviy holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilib tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich xomashyoning xususiyatlari va tadqiqotlarni o‘tkazish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida esa tadqiqot uchun tanlangan moddalarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari va sintez usullari asoslangan, vinilatsetilen bilan birikish jarayoni usullari, sintez qilingan birikmalarning tarkibini analiz qilish bilan bir qatorda tajriba uslubiyoti keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikkilamchi aminlarga vinilatsetilening birikish jarayoni tadqiqoti, sintez qilingan moddalarning xossalari”** deb nomlangan uchinchi bobi 3 ta paragrafdan iborat bo‘lib, vinilatsetilen asosidagi to‘yingan halqali ikkilamchi aminlarning tarkibida qo‘shbog‘ va uchbog‘ tutgan hosilalarini olish va ularning fizik-kimyoviy xossalarni o‘rganish, to‘yingan halqali ikkilamchi aminlarning uchbog‘ saqlagan hosilalardan karbonillash reaksiyasi hamda moddalarning kvant-kimyoviy tahlili aks ettirilgan. To‘yingan halqali ikkilamchi aminlar o‘zining asoslik tabiatiga hamda siklik xossaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. To‘yingan halqali ikkilamchi aminlarning faolligini oshirish, tarkibiga allen yoki uchbog‘ saqlagan hosilalarni kiritish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Buning sababi bunday birikmalar o‘zining reaksiya qobiliyati yuqoriligi bilan boshqa moddalardan ajralib turadi, shuningdek, hosil bo‘lgan birikmalar orqali katalizatorlar, biologik faol birikmalar va korroziya ingibitorlarini sintez qilish mumkin. Bir qancha olimlar vinillovchi agent sifatida faqat atsetilendan foydalanib kelishgan. Ammo bizning tadqiqotlarmizning farqi shundaki, vinillovchi agent sifatida atsetilen emas, vinilatsetilen tanlandi. Vinilatsetilen uslubiyot bo‘yicha sintez qilindi. O‘rtacha haroratda tozalab olingan vinilatsetilen katalizator ishtirokida morfolin bilan birikish reaksiyasi olib borildi. Reaksiyaning optimal sharoiti tanlanib, sintez amalga oshirildi. Amalga oshirilgan tajribalar natijalari va zamonaviy tekshirish usullari yordamida reaksiyaning yo‘nalishi quyidagicha taklif etildi. Sintez qilingan moddaning tuzilishidan ko‘rinib turibdiki, uning tarkibidagi uchbog‘ va kumillashgan diyen hisobiga unga turli xil funksional guruhlarni kiritish mumkin, shuningdek, amin guruhning reaksiya qobiliyati yuqoriligi ham uning hosilalarini sintez qilish imkonini beradi.


Atsetilendan farqli holda vinillovchi agent sifatida vinilatsetilendan foydalanilganda qo‘shbog‘ soni bittaga ortadi, ya‘ni, diyenli hosila olinadi.

Atsetilen oʻrniga toʻyingan halqali ikkilamchi aminlar bilan turli xil asosli muhitda vinilatsetilenning birikish reaksiyasi olib borilganda, bular orasida eng yuqori reaksiya unumiga ega boʻlgani ham KOH/DMSO boʻldi. KOH/DMSO sistemasining yuqori asoslilik xususiyatining mohiyati kationlarning kuchli, anionlarning esa kuchsiz solvatlanishi bilan bogʻliq. Bundan tashqari, KOH ning dimetilsulfoksidda oz eruvchanligi hamda dissotsilanish darajasining kichikligini ham eʼtiborga olish kerak. Katalizator miqdori ham reaksiya unumiga taʼsir qiladi.



1-rasm. N-morfolinbutadiyen-2,3ning reaksiyasiga katalizator miqdorining taʼsiri. (65 °C haroratda): morfolin massasiga nisbatan 1-10%; 2-20%; 3-15% olingan KOH

Kuzatilayotgan samaradorlikka sabab DMSO+KOH bilan birgalikda super asosli KOH+DMSO muhitini hosil qiladi, bu esa allenlashni osonlashtiradi. Vinilatsetilenning birikish reaksiyasida KOH+DMSO sistemasining roli shundaki, jarayonda yuqori asosli dimsil anionini hosil qiladi u oʻz navbatida eritmaning elektr oʻtkazuvchanligini, vodorod bogʻlanish darajasi va boshqa omillarini oʻzgartirib reaksiyani amalga oshishini taʼminlaydi. Bizga maʼlumki, katalitik jarayonlarda mahsulot unumi va reaksiya yoʻnalishiga katalizator va erituvchi tabiati hamda miqdori, harorat, boshlangʻich moddalar mol nisbatlari, shuningdek, dastlabki reagentlarning kiritilish tezliklari katta taʼsir koʻrsatadi. Morfolinga vinilatsetilenning birikish jarayoniga katalizator tabiati taʼsiri tadqiq qilindi. N-morfolinbutadiyen-2,3 ni yuqori unum bilan olish maqsadida morfolinni allenlash jarayoni KOH-DMSO sistemasi yordamida oʻrganildi. Bunda sistemaning asosligi yanada oshadi va hosil boʻlgan mahsulot unumining keskin oshishiga imkon beradi.



Tadqiqotlarda reaksiya davomiyligi 1 soatdan 4 soatgacha oshirilganda N-morfolinbutadiyen-2,3ning unumi maksimum orqali oʻtishi aniqlandi. Harorat

30-90°C orasida amalga oshirildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Harorat 65°C da va reaksiya davomiyligi 4 soat bo'lganda mahsulotning unumi 37,6 % ga teng. Reaksiya davomiyligining yanada oshirilishi ushbu qonuniyatni yuqori haroratlarda, vinilatsetilenning eruvchanligini kamayishi, natijada, uning reaksiyon sistemadagi miqdori kamayib, reaksiya tezligi va N-morfolinbutadiyen-2,3 unumining pasayishi bilan tushuntiriladi, 4 soatda uning unumi maksimal qiymatga erishadi, ya'ni 37,6 % ni tashkil etadi.

1-jadval

Morfolinni KOH-DMSO sistemasi ishtirokida allenlashda N-morfolinbutadiyen-2,3 unumiga haroratning ta'siri (katalizator KOH ning miqdori morfolin massasiga nisbatan - 15%)


№	Reaksiya harorati, °C	N-morfolinbutadiyen-2,3 unumi, %
1	30	10,2
2	35	14,6
3	40	18,7
4	45	24,2
5	50	29,4
6	55	33,2
7	60	36,2
8	65	37,6
9	70	35,2
10	75	33,2
11	80	29,4
12	85	26,4
13	90	22,6

Turli haroratlarda reaksiya tadqiq etildi, haroratni 70 °C ga oshirilishi mahsulot unumini 35,2 % gacha oshishiga olib keldi. Haroratni 70 °C dan yuqoriga oshirilishi mahsulot unumini kamaytirdi va buni sintez qilinayotgan allen birikmaning oligomerlanishi hamda morfolinning va hosil bo'layotgan mahsulotning qisman oksidlanishi yoki yuqori haroratlarda vinilatsetilenning eruvchanligining kamayishi va mahsulotning destruktiv o'zgarishi bilan tushuntirish mumkin. Shunday qilib, morfolinni allenlash reaksiyasining tadqiqi uning muqobil sharoiti: erituvchi – DMSO, katalizator KOH miqdori - 15% (morfolin massasiga nisbatan), harorat 65 °C, ammo reaksiya borish vaqti 6 soat bo'lganda N-morfolinbutadiyen-2,3 unumi 32,6 % bo'lishini ko'rsatdi.


N-morfolinbutadiyen-2,3 ning tuzilishi esa IQ spektroskopik usullar yordamida isbotlandi. N-morfolinbutadiyen-2,3 IQ-spektridagi (3.3-rasm) xarakterli yutilish sohalari quyidagicha: 1653 sm^{-1} – C=C vinil guruhining valent tebranishlari, 1436 sm^{-1} va 1406 – metilen guruhining simmetrik va asimmetrik deformatsion tebranishlari, 2835-2912, 2954-2995 sm^{-1} metilen guruhlarining simmetrik va asimmetrik tebranishlariga, allen saqlagan =CH₂ tebranishidan 1025 va 850 sm^{-1} oraliqlarida kuchli yutilishi, 1141-1095 sm^{-1} morfolindagi C—O—C

bog‘i uchun asimmetrik va simmetrik, 835 cm^{-1} C—N ning deformatsion tebranishi, 898 cm^{-1} qo‘shbog‘ saqlagan uglerodagi C—H bog‘i uchun, 1317 cm^{-1} halqadagi CH_2 simmetrik tebranishi, 3439 cm^{-1} mahsulotning morfolin fragmentidagi azotning deformatsion tebranishlariga mos keladi. Allen tuzilishi kumulashgan bog‘ uchun $2000\text{--}1900\text{ cm}^{-1}$ orasida yutilishi ushbu modda tarkibida allen tipidagi guruh borligidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, N-morfolinbutadiyen-2,3ning xromato-mass spektri tahlil qilindi (3-rasm).



2-rasm. N-morfolinbutadiyen-2,3ning IQ-spektri




3-rasm. N-morfolinbutadiyen-2,3ning xromato-mass spektri

Bunda N-morfolinbutadiyen-2,3ning molekulyar massasiga mos holda molekular ion cho‘qqisi $139,0$ ga teng bo‘ldi. Piperidin bilan vinilatsetilenning birikishidan N-piperidenbutadiyen-2,3 olindi va raman spektri (4-rasm) tahlil qilindi.


N-piperidenbutadiyen-2,3 ning Raman spektri tahlilida (4-rasm) $2852,96\text{ cm}^{-1}$ sohada siklik holatdagi C—H ($\text{sp}^3\text{-s}$) bog‘i uchun xarakterli bo‘lgan kuchsiz

signalni, $1422,27 \text{ cm}^{-1}$ sohada C-N bog'iga xos bo'lgan tebranish signallari, $1031-829 \text{ cm}^{-1}$ sohalarda C=C bog'iga xos bo'lgan signallarni ko'rish mumkin. $706-672 \text{ cm}^{-1}$ sohada C-C bog'i uchun xos bo'lgan tebranish signallari mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Allen tipli moddalarga xos bo'lgan $2000-1900 \text{ cm}^{-1}$ oralig'ida intensiv signalning mavjud ekanligini ko'rish mumkin.




4-rasm. N-piperidenbutadien-2,3ning Raman spektri


Ma'lumki, morfolin yoki piperidinga vinilatsetilenni birikishidan N-morfolinbutadien-2,3 va N-piperidenbutadien-2,3lar hosil bo'ladi. Ushbu mahsulotlarni olishda dastlabki ikkilamchi aminlar (morfolin va piperidin) mo'l miqdorda olinib uzoq vaqt qizdirilganda yoki alkogolyatlar ta'sirida atsetilen qatori aminlarga aylanadi. Reaksiyalarni umumiy holda quyidagi tarzda ifodalash mumkin:




Hosil bo'lgan uchbog' saqlagan amin guruhlardan gidratlash reaksiyasi asosida karbonil birikmalar olindi:




Bu reaksiyalardan mos ravishda N-morfolinbutin-2 (4-morfolinobutin-2) va N-piperidenbutin-2 (4-piperidenobutin-2) lardan 4-morfolinobutanon-2 va 4-piperidinobutanon-2 lar hosil bo'ladi. N-morfolinbutin-2 olish mexanizimini quyidagicha ifodalash mumkin. Morfolinga kislota tabiatiga ega bo'lgan vinilatsetilendagi atsetilen guruhi morfolidagi azot atomi tomonga elektrofil hujum qiladi:




Ammoniyli ikki qutbli tuz hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan ikki qutbli molekulaning azot atomidagi vodorodning qayta guruhlanishidan 1,3-butadiyenli mahsulot hosil bo'ladi.



Hosil bo'lgan 1,3-butadiyenli hosiladan qo'shbog'lar barcha uglerod atomi uchun bir xil bo'lganligi sababli, morfolin fragmentidagi azot atomining elektronga moyilligi ustun bo'lganligi sababli, ikkinchi C atomidagi vodorod ichki qayta guruhlanib uchbog'li barqaror birikmaga o'tadi:



Hosil bo'lgan atsetilen hosilasiga simob (II) oksid yoki tuzi katalizator ishtirokida kislotali muhitda tegishli keton hosil bo'ladi:



Bitta C atomida ham qo'shbog' ham OH guruhi bo'lsa bunday birikmalar beqaror bo'lib tezda ichki qayta guruhlanadi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, reaksiya davomiyligi 1 soatdan 5 soatgacha oshirilganda N-morfolinbutanon-2ning unumi maksimum orqali o'tadi. 60 °C haroratda va reaksiya davomiyligi 4 soat bo'lganda mahsulotning unumi 27,4 % ga yetadi. Reaksiya davomiyligi yanada oshirilganda N-morfolinbutanon-2 ning unumi kamayadi, chunki, fazoviy faktor ta'sir qiladi, 6 soatdan so'ng uning unumi maksimal 22,3 % ni tashkil etadi. Harorat yanada oshirilganda 65-70 °C da mahsulotni unumi kamayishi 20,2 % bo'lishi aniqlandi. Haroratni yanada oshirilishi mahsulot unumini kamayishiga olib keldi, buni sintez qilinayotgan karbonil birikmaning oksidlanishi hamda yuqori haroratlarda N-morfolinbutin-2 eruvchanligini kamayishi va mahsulotning destruktiv o'zgarishi kelib chiqishi bilan tushuntiriladi.

Shunday qilib, N-morfolinbutin-2 ni karbonillash reaksiyasining tadqiqi uning optimal sharoitlari: erituvchi – H₂O, katalizator HgSO₄+H₂SO₄ miqdori 8 % (N-

morfolinbutin-2 massasiga nisbatan), harorat 60 °C, reaksiya davomiyligi 4 soat bo‘lganda N-morfolinbutanon-2ning unumi 27,4 % bo‘lishini ko‘rsatdi.


2-jadval

N-morfolinbutanon-2 unumiga haroratning ta’siri (katalizator HgSO₄+H₂SO₄ ning miqdori modda massasiga nisbatan - 8%)


Reaksiya davomiyligi, soat	Harorat, °C	N-morfolinbutanon-2 unumi, %
1-variant		
1	50	4,6
2	50	6,8
3	50	9,8
4	50	12,5
2-variant		
1	55	6,4
2	55	13,0
3	55	16,4
4	55	18,9
3-variant		
1	60	8,8
2	60	18,6
3	60	24,5
4	60	27,4
6	60	22,3
4-variant		
1	65	8,0
2	65	13,8
3	65	19,2
4	65	21,1
5-variant		
1	70	7,6
2	70	13,6
3	70	18,6
4	70	20,2

N-morfolinbutin-2 ni karbonillash reaksiyasining borishiga haroratning ta’siri o‘rganilganda, olingan natijalar asosida turli haroratlarda N-morfolinbutanon-2 unumining reaksiya davomiyligiga bog‘liqlik grafigi ham tuzildi (5-rasm).

Olingan tajriba natijalariga ko‘ra, harorat mahsulot unumiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Barcha hollarda olinayotgan mahsulotning unumi boshqa barcha bir xil sharoitlarni hisobga olmasdan vaqt va haroratga bog‘liq holda oshadi. Reaksiya davomiyligi 4 soat bo‘lganda haroratni 60 °C gacha ko‘tarish, mahsulot unumi 27,4 % gacha orttiradi. Haroratning yanada ko‘tarilishi reaksiyani ancha sekinlashtiradi.



5-rasm. Turli haroratlarda N-morfolinbutanon-2ning unumiga reaksiya davomiyligining ta'siri(1-50°C, 2-70°C, 3-60°C)



6-rasm. N-piperidenbutanon-2ning ¹H YaMR spektri

Sintez qilingan moddani N-piperidenbutanon-2 ¹H YaMR spektrlari olindi. Sintez qilingan moddalarning tuzilishi ¹H YaMR usulli bilan asoslandi. N-piperidenbutanon-2 ning ¹H YaMR spektrlari olindi. N-piperidenbutanon-2 ning YaMR spektrlarida (6-rasm) quyidagi proton signallari (H-10) δ 0,95-0,97 m.h., (H-3, H-5 va H-4) δ 1,44-1,46 m.h., (H-2, H-6 va H-9) δ 2,29-2,32 m.h., singlet (H-7) δ 2,83-2,84 m.h. kuzatildi. Bu birikmaning N-piperidenbutanon-2 ekanligini tasdiqlaydi.


Sintez qilingan moddalarni korroziya ingibitori sifatida po'lat (St.3 va St.20) namunalarida qo'llash deb nomlangan to'rtinchi bobda morfolin, piperidendan olingan N-morfolinbutanon-2 va N-piperidenbutanon-2 mahsulotlarining antikorrozion xossalari, sintez qilingan korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarishda amaliy qo'llanilishi hamda azot saqlagan, to'yingan halqali birikmalar asosida olingan korroziya ingibitorlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

Turli xil haroratlarda NMBN-2 va NPBN-2 lar ishtirokida 1,0 M HCl muhitida po‘lat uchun massa yo‘qotilishini o‘lchash natijasida olingan korroziya tezligi qiymatlari

Harorat (°C)	Ingibitor konsentratsiyasi, mg/l	NMBN-2		NPBN-2	
		$K_t, (\text{mg}\cdot\text{sm}^{-2}\cdot\text{s}^{-1})$	Z, (%)	$K_t, (\text{mg}\cdot\text{sm}^{-2}\cdot\text{s}^{-1})$	Z, (%)
30	0	1,781	-	1,781	-
	50	0,769	56,8	0,858	51,8
	100	0,576	67,6	0,657	63,1
	150	0,502	71,8	0,520	70,8
	200	0,441	75,2	0,473	73,4
	250	0,347	80,5	0,359	79,8
	300	0,199	88,8	0,781	84,2
	350	0,151	91,5	0,169	90,5
	400	0,135	92,4	0,155	91,3
40	0	2,281	-	2,281	-
	50	1,16	49,1	1,213	46,8
	100	0,973	57,3	1,056	53,7
	150	0,811	64,4	0,878	61,5
	200	0,633	72,2	0,698	69,4
	250	0,545	76,1	0,597	73,8
	300	0,453	80,1	0,469	79,4
	350	0,358	84,3	0,422	81,5
	400	0,291	87,2	0,330	85,5
50	0	3,171	-	3,171	-
	50	1,645	48,1	1,673	47,2
	100	1,325	58,2	1,375	56,6
	150	1,201	62,1	1,261	60,2
	200	0,935	70,5	1,002	68,4
	250	0,779	75,4	0,875	72,4
	300	0,723	77,2	0,786	75,2
	350	0,685	78,4	0,754	76,2
	400	0,656	79,3	0,719	77,3
60	0	3,624	-	3,624	-
	50	1,842	49,1	1,891	47,8
	100	1,710	52,8	1,761	51,4
	150	1,541	57,5	1,587	56,2
	200	1,301	64,1	1,355	62,6
	250	1,174	67,6	1,225	66,2
	300	0,986	72,8	1,032	71,5
	350	0,953	73,7	0,993	72,6
	400	0,902	75,1	0,949	73,8


va sintez texnologiyasi tavsifi ikkilamchi to'yingan aminlar atsetilenli hosilalarini karbonillash asosida olingan NMBN-2 va NPBN-2 korroziya ingibitori olinishining texnologik jarayoni aks ettirilgan (3-jad.).

Po'lat namunalarining sirtida sodir bo'layotgan o'zgarishlar elektron skanerlovchi mikroskop orqali tahlil etildi va olingan natijalarni tasdiqlashi aniqlandi (7-rasm).



7-rasm. St.3ning NMBN-2 bilan ishlov berilgandan so'ng SEM yordamida olingan fototasviri (a) va po'latning yuza element analizi (b)

Olingan korroziya ingibitorlar olinishining texnologik jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: xomashyoni tayyorlash, sintezni amalga oshirish, sintezlangan moddani ajratib olish, filtrlash va tayyor mahsulotni qadoqlash. Taklif etilayotgan texnologiya asosida (8-rasm) tarkib uchun kerakli reagentlar (C_2H_2 , N_2) aralashmasi 3,5:2 nisbatda adsorber(1)da seolit yordamida quritilib, $20\text{ m}^3/\text{s}$ sarf bilan R-1 reaktor(2)ga dimerlash uchun yuboriladi. Reaktorda oldindan tayyorlangan $CuCl+HCl$ va ammoniy xlorid tarkibli katalizator qatlamidan o'tkaziladi.



8- rasm. N-morfolinbutanon-2 korroziya ingibitori olishning prinsipial texnologik sxemasi: 1- adsorber, 2,15,20 - reaktor, 3,5,22– kompressor, 4,12 – sovutkich, 6 - separator, 7,10,14,16,21-nasos, 8-reagentlarni tayyorlash sig'imi, 9

– ko‘ylakli eritgich, 11-ekstraktor, 13,19-isitgich, 17-pech 18- rektifikatsion kollona.

Separatorning yuqori qismidan atsetilen va azot kompressor(5) orqali chiqarilib adsorber(1)ga 0,8MPa bosim ostida yuboriladi. Separator(6)ning pastki qismidan olingan vinilatsetilen ish unumdorligi (80 %) 6 m³/s bo‘lgan nasos(7) yordamida 25-isitgichda isitilib, R-2 reaktor(20)ning quyi qismidan morfolinga birlashtiriladi. Bunda N-morfolinbutadiyen-2,3 hosil bo‘ladi. 85°C haroratli ko‘ylakli reaktor(9)ga KOH katalizatori 0,6 kg/s, DMSO erituvchisi 1 kg/s sarf bilan kiritiladi. Tayyorlangan katalizator va erituvchidan iborat bo‘lgan sistemani, hajmi 2 m³ bo‘lgan tayyorlash sig‘imi(8)ga 1,6 kg/s sarf bilan morfolinga aralashtirish uchun kiritiladi. Sig‘imga morfolin 5 kg/s sarf bilan kiritiladi. Sig‘im (8)da erituvchi va katalizator morfolin bilan 180 daqiqa davomida intensiv aralashtiriladi. Morfolinga birikmagan vinilatsetilen reaktorning tepa qismidan chiqarilib sirkulyatsion gaz sifatida tizimga qaytariladi. Hosil bo‘lgan reaksiyon aralashmalar (DMSO, KOH, morfolin, N-morfolinbutadiyen-2,3) 0,1 m³/s sarf bilan reaktorning pastki qismida nasos(10) yordamida atrof-muhit haroratida (25 °C) hajmi 1 m³ bo‘lgan dietil efirli E-1 ekstraktor kollonasi(11)ga yuboriladi. Toza holda ajratib olingan asosiy mahsulot (N-morfolinbutadiyen-2,3) nasos(14) orqali 0,1 m³/s sarf bilan isitgich (13)ga N-morfolinbutadiyen-2,3dan N-morfolinbutin-2ni hosil qilish uchun yuboriladi. Hosil bo‘lgan N-morfolinbutin-2 ni 0,1 m³/s sarf bilan sovutkich(12)da sovutib, R-3 reaktor(15)ga yuboriladi. R-3 reaktor(15)da Hg²⁺ tuzi va H₂SO₄ tarkibli katalizator ishtirokida N-morfolinbutin-2 dan N-morfolinbutanon-2 sintez qilinadi.

Reaktorning pastki qismidan chiqarilgan reaksiya mahsuloti nasos(16) orqali 0,1 m³/s sarf bilan pech(17)da 200°C haroratgacha isitilib rektifikatsion kollona(18)ga yuboriladi. Rektifikatsion kollonaning pastki qismidan suyuq holatdagi katalizator (H₂SO₄+HgSO₄) chiqariladi. Katalizatorning bir qismi rektifikatsion kollonadagi haroratni doimiyligini ta’minlash uchun qaynatgich(19)dan 0,1 m³/s sarf bilan o‘tkazilib, kollonaga qaytariladi. Qolgan qismi esa nasos(21) yordamida 0,1 m³/s sarf bilan R-3 reaktor(15)ning yuqori qismiga sirkulyatsiya qilinadi. Rektifikatsion kollonaning tepa qismidan bug‘ holatdagi N-morfolinbutanon-2 chiqarilib, sovutiladi va separatorda katalitik sistemadan to‘la tozalanadi. Ajratilgan katalitik sistema rektifikatsion kolonaning yuqori qismiga sovuq sug‘orish sifatida qaytariladi.

Rektifikatsion kollonaning tepa qismidan bug‘ holatdagi N-morfolinbutanon-2 chiqarilib, sovutiladi va rezervuarga yuboriladi. Reaksiya unumi umumiy barcha jarayonlar uchun 78-82 % ni tashkil etadi.

XULOSA

«Azot tutgan halqali birikmalarning to‘yinmagan hosilalari sintezi, xossalari va texnologiyasi» mavzusidagi texnika fanlaridan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Morfolin piperidin, atmosfera bosimida vinilatsetilen ishtirokida birikish

(allenlash) reaksiyasi tadqiq qilindi, bunda, asosan aminlardan mos ravishdagi N-diyen(atsetilen)li hosil bo'lishi aniqlandi.

2. Tanlangan moddalarga vinilatsetilenni birikish jarayoniga harorat, katalizator tabiati va miqdori, reaksiya davomiyligi organik erituvchilar ta'sirini o'rganish orqali 65 °Cda unum yuqori bo'lib, 38 % gacha yetadi va jarayon uchun eng yaxshi erituvchi DMSO hisoblanadi.

3. KOH-DMSO yuqori asosli sistemaning reaksiyadagi katalitik roli aniqlandi. Birikish jarayonida boshlang'ich to'yingan halqali aminlarning tabiati hosil bo'lgan birikmalar unumiga ta'sir qilishi asoslandi va o'rganilgan aminlarning vinilatsetilenga birikishida nisbatan faollik morfolinda kuzatildi. Sintez qilingan geterotsiklik birikmalar hosilalarining tuzilishi va xossalari YaMR ¹H, IQ, Raman, xromato-mass- spektroskopiya va kvant-kimyoviy, ekstraksion usullarda o'rganilgan holda reaksiya mexanizmi taklif qilindi.

4. 1,0 M HCl eritmasida St.20 va St.3 po'latda ingibitorlarning (NMBN-2 va NPBN-2) korroziya tezligi sistemali ravishda tadqiqi asosida ingibitor samaradorligi ingibitor konsentratsiyasining ortishi bilan oshdi, korroziyani ingibirlash samaradorligi 30 °C da 350 mg/l konsentratsiyasida mos ravishda ishqoriy muhitda (ishlab chiqarish sharoitidagi aylanma suvlarda) 91,5 % va kislotali muhitda 78,7 % ga yetadi

5. Korroziya ingibitorlarlari olishning laboratoriya jarayonlari asosida prinsipial texnologik sxemasi yaratildi va yillik kutiladigan iqtisodiy samaradorlik amalda foydalaniladigan GWE-3118 ingibitorning tonnasiga nisbatan 8 515 218 so'mni tashkil etadi.

6. Sintez qilingan moddalarni kimyo, neft-gaz sanoati metall quvurlarining kislotali korroziyasiga qarshi ingibitorlik xossasi o'rganildi, NMBN-2 va NPBN-2 "Sho'rtan gazkimyo majmuasi" MCHJ laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi va amaliyotga joriy etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.17/30.2022.Т.06.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАВОЙСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ГОРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЖУМАЕВ ЖАББОР ХАМРОКУЛОВИЧ

**СИНТЕЗ, СВОЙСТВА И ТЕХНОЛОГИЯ НЕПРЕДЕЛЬНЫХ
ПРОИЗВОДНЫХ АЗОТСОДЕРЖАЩИХ ЦИКЛИЧЕСКИХ
СОЕДИНЕНИЙ**

02.00.14-Технология органических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Навои-2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/T3245.

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета (www.ndki.uz) и на Информационно-образовательном портале «Zionet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:

Ахмедов Вохид Низомович
кандидат технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кадилов Хасан Иргашевич
доктор технических наук, профессор

Бекназаров Хасан Сойибназарович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится 24 06 2023 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.17/30.07.2022.Т.06.03. (Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Зал заседаний Навоийского государственного горно-технологического университета. Тел.: 0 (436) 223-23-32; факс: 0 (436) 223-49-66; (e-mail: info@ndki.uz, nsmi@gmail.com).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Навоийского государственного горно-технологического университета (зарегистрирован за № 136). Адрес: 210100, г. Навои, ул. Галаба шох, 76в. Тел.: 0 (436) 223-23-32; факс: 0 (436) 223-49-66.

Автореферат диссертации разослан 5 06 2023г.
(реестр протокола рассылки № 5 от 5 06 2023г.).



Б.Ф. Мухиддинов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.х.н., профессор

С.Ш. Шарипов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, PhD., доцент

Х.М. Вапов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире органические вещества, особенно диеновые и ацетиленовые производные вторичных предельных аминов, находят широкое применение в различных отраслях нефтегазохимии, сельского хозяйства, фармацевтики, химической промышленности, лакокрасочной и текстильной промышленности. Следовательно, из которых веществ можно получать инсектициды, сорбенты, полимеры с особыми свойствами, пигменты, лекарственные препараты, светочувствительные материалы, биологически активные вещества, цветные пленки, пластмассы, термостабилизирующие волокна и композиционные материалы. Поэтому важным является нахождение возможностей синтеза диеновых, ацетиленовых производных аминов и важных химических компонентов в присутствии катализаторов различной природы, органических растворителей и их смесей, а также сильноосновных сред, влияющих на процесс винилирования азотсодержащих соединений.

В мире, на сегодняшний день ведутся научные исследования по синтезу и изучению свойств высокопроизводительных диеновых аминов, ацетиленовых аминов, а также их практическому применению в реакциях соединения азотсодержащих органических веществ с винилацетиленовыми соединениями при высоких давлениях и температурах. Вместе с этим в настоящее время особое внимание уделяется созданию методов получения соединений, содержащих азот, фосфор и фосфорорганические соединения, а также винилацетиленовых соединений веществ, удерживаемых активным атомом водорода, в высокоосновных системах при атмосферном давлении, применению синтезированных продуктов в различных средах в качестве ингибиторов коррозии металлов.

В республике в последние годы достигнуты ряд научных и практических результатов по синтезу азотсодержащих кольцевых соединений на основе местного сырья ацетилена, разработке на их основе средств, применяемых для коррозии металлов, имеющих значение для народного хозяйства. В стратегии действий¹ по дальнейшему развитию Республики Узбекистан намечены важные задачи, направленные на «освоение выпуска принципиально новых видов продукции и технологий, обеспечение на этой основе конкурентоспособных отечественных товаров на внешних и внутренних рынках». Исходя из этих задач, важное значение приобретают научные исследования, направленные на создание методов производства продуктов органического синтеза на основе местного сырья-ацетилена, улучшение структуры, физико-химических, технологических и эксплуатационных свойств получаемых продуктов.
